

O'zbekiston Professional futbol ligasi
BIRINCHI LIGA REGLAMENTI
2025

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



Mazkur reglament O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan ishlab chiqilgan. U O'zbekistonda yarim professional futbol jamoalari o'rtasida 2025 yilgi musobaqalarni o'tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi me'yoriy hujjatdir.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Mundarija

1-bob	Umumiy qoidalar	6
2-bob	Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad	6
3-bob	Musobaqani boshqarish tartibi	6
4-bob	Musobaqa o'tkaziladigan joy	7
5-bob	Birinchi liga formati	7
6-bob	Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi	8
7-bob	Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi	9
8-bob	Futbol jamoasining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	9
9-bob	Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi	10
10-bob	Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi	12
11-bob	Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar	13
12-bob	Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish	13
13-bob	Futbol jamoasi, jamoa rasmiysi hamda futbolchi majburiyatini tartibga solish	14
14-bob	Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi	16
15-bob	Jamoaning musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar	19
16-bob	Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	20
17-bob	Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish	20
18-bob	Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish	22
19-bob	Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi	22

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

1-bob

Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur reglament Birinchi liga jamoalari ishtirokidagi musobaqalarni o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. O'zPFL musobaqa tashkilotchisi hisoblanadi. Musobaqa doirasidagi futbol uchrashuviga hakam va nazoratchilar O'zFHM bilan imzolangan shartnoma asosida jalb qilinadi.

1.3. Mazkur reglament faqatgina o'zbek tilida chop etilgan.

2-bob

Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad

2.1. Musobaqa:

- O'zbekistonning havaskor futbol jamoalarini yarim professional futbol jamoasiga hamda yarim profesional futbol jamoalarining bosqichma-bosqich professional futbol klubiga aylanishiga ko'maklashish;
- bolalar-o'smirlar futbol maktablari, hududiy futbol akademiyalari, futbol klublari qoshida tashkil etilgan futbol akademiyalari bitiruvchilarining professional futbolchi sifatida shakllanib borishiga ko'maklashish;
- hududiy assotsiatsiyalar tomonidan o'tkaziladigan Ikkinchi liga musobaqasi g'oliblari uchun professional maqomga ega bo'lgan Proliga musobaqasiga qadar bo'lgan masofani yaqinlashtirish kabi maqsadlarni ifoda etadi.

3-bob

Musobaqani boshqarish tartibi

3.1. Musobaqani boshqarish, tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish Liga tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Liga boshqa musobaqalar ham tashkil etadi va ularni quyidagi reglamentlar bilan tartibga soladi:

- "O'zbekiston kubogi va Superkubogi reglamenti";
- "Superliga va Proliga reglamenti".

3.3. Musobaqa ushbu reglament, shuningdek, FIFA, OFK, O'FA, Liga tomonidan tasdiqlangan va reglamentga kiritilgan qo'shimchalar, maxsus nizomlar, ilovalar asosida o'tkaziladi.

4-bob

Musobaqa o'tkaziladigan joy

4.1. Musobaqa Liga tomonidan ruxsat etilgan stadionlarda o'tkaziladi.

4.2. Musobaqa qatnashchisi o'z stadioniga ega bo'lmasa hamda uy uchrashuvini o'tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, u holda mazkur shartnoma Liga ishtirokida uch tomonlama tuzilishi talab etiladi.

4.3. Fors-major holatida uchrashuvni o'tkazish uchun stadionni o'zgartirishga to'g'ri kelsa, mezbon futbol klubiga Liga bilan uch tomonlama kelishuvga erishgan stadionlardan birida rasmiy uchrashuvni o'tkazish uchun ruxsat beriladi.

4.4. Rasmiy uchrashuvdan bir kun avval mezbon klub Liga komissariga stadionning o'yinga tayyorgarligi to'g'risida dalolatnoma taqdim etadi. Liga komissari mazkur dalolatnomasiz uchrashuvni o'tkazmaslikka haqli.

4.5. Musobaqa qatnashchisi stadiongga qo'yilgan talabni lozim darajada bajara olmasa, Liga mazkur jamoaning uy uchrashuvini raqib jamoa maydoniga ko'chirishga haqli.

5-bob

Birinchi liga formati

5.1. Birinchi liga ishtirokchilari musobaqaning birinchi bosqichida uch mintaqaga — sharq, markaz va g'arb mintaqasiga ajratiladi. Bunda har bir mintaqa jamoasi shu mintaqaning qolgan jamoalariga qarshi uy-safar o'yinida ishtirok etadi.

5.2. Birinchi bosqichga berger tizimida qur'a tashlanadi.

5.3. Mazkur bobning 1-bandida ko'rsatilgan birinchi bosqich yakuniga ko'ra har mintaqaning eng yaxshi besh jamoasi pley-off bosqichiga yo'l oladi.

5.4. Musobaqaning pley-off bosqichi markazlashtirilgan holda bitta shaharda bo'lib o'tadi va unda shu bobning 3-bandidan kelib chiqib, umumiy 15 ta jamoa hamda Liga tanlovidan kelib chiqib, bitta qo'shimcha mehmon jamoa musobaqa g'olibligi uchun kurash olib boradi.

5.5. Musobaqaning pley-offi 1/8, 1/4 va 1/2 bosqichlaridan, shuningdek, 3-o'rin uchun o'yin hamda finaldan iborat bo'ladi. 1/8 final bosqichida jamoalar 2 tadan, qolgan barcha bosqichda juftliklar faqatgina 1 tadan o'yinda maydonga tushadi. Bunda barcha uchrashuvlar Toshkent shahrida bo'lib o'tadi.

5.6. Pley-offning 1/8 finaliga qur'a tashlash oldidan jamoalar ikki savatga ajratib olinadi:

- 1-savatdan o'z mintaqasida dastlabki ikki o'rinni egallalagan hamda barcha mintaqaning umumiy turnir jadvaliga ko'ra eng yaxshi ikki 3-o'rinni egallagan jamoalar joy oladi;
- 2-savatdan o'z mintaqasida 4-5 o'rinlarni egallagan, barcha mintaqaning umumiy turnir jadvalida eng past natija qayd etgan 3-o'rin sohibi hamda Liga tomonidan musobaqaga taklif etilgan mehmon jamoa joy oladi.

Pley-offning 1/8 final bosqichida juftliklar qo'shimcha taymlarsiz 2 tadan uchrashuvda maydonga tushadi va har ikki uchrashuv natijasiga ko'ra g'olib chiqqan jamoa 1/4 final bosqichiga yo'llanma oladi. Bunda ikki o'yin natijasiga ko'ra ochkolar va gollar teng kelib qolsa, g'olib jamoa nomi penaltilar seriyasiga ko'ra aniqlanadi.

1/4 hamda 1/2 final bosqichi uchun bitta umumiy qur'a tashlanadi va bunda jamoalar savatlarga ajratilmaydi.

5.7. Pley-off bosqichida o'z mintaqasida egallagan o'rni yaxshiroq jamoa har qanday holatda ham nominal mezbon hisoblanadi. Bir xil ko'rsatkich qayd etgan ikki jamoa o'zaro to'qnash kelsa, mazkur holatda ketma-ketlik bo'yicha sharq, markaz, g'arb mintaqasi jamoasi nominal mezbon bo'lishi ta'minlanadi.

5.8. Pley-off bosqichi o'yinlarida kuchlar teng kelsa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

5.9. Liga stadionlar, shaharlar hamda boshqa asosli sabablardan kelib chiqib, futbol klublarini qur'a oldidan juftliklarga ajratib olish huquqiga ega.

5.10. Mavsum yakuniga ko'ra Proliga yo'llanmasi qaysi jamoa(lar)ga taqdim etilishi hamda Birinchi ligani qaysi jamoa(lar) tark etishi masalasi Liga tomonidan aniqlanadi. O'z navbatida, Liga qaror qabul qilishda mavsum davomida jamoalarning musobaqalardagi ishtiroki, hujjatlarni yuritish ishlari, buxgalteriya hisobotlari, maydonlar va ulardagi o'zgarishlar, litsenziyalash talablariga qanchalik mos tushishi kabi holatlarni monitoring qilishdagi xulosalarni inobatga oladi.

6-bob

Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi

6.1. Musobaqa qatnashchisining o'rni uning to'plangan ochkolari yig'indisiga ko'ra aniqlanadi.

6.2. Har bir uchrashuvdagi g'alaba uchun musobaqa qatnashchisiga 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko yoziladi.

6.3. Ikki va undan ortiq qatnashchi to'plagan ochkolar teng bo'lib qolsa, ularning o'rni quyidagi ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi:

- o'zaro uchrashuv(lar) natijasiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda raqib maydonida urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda safar o'yinlarida erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda uy o'yinlarida uchralgan mag'lubiyatlar sonining aks ta'siriga ko'ra.

6.4. O'zaro uchrashuvda texnik mag'lubiyatga uchragan jamoa shu bobning 3-bandidan istisno tariqada quyi o'rinni egallaydi.

6.5. Musobaqaning davom etishi va uning natijasini aks ettiradigan rasmiy ma'lumot Liga matbuot xizmati tomonidan tarqatiladi.

7-bob

Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi

7.1. Birinchi ligada 1-o'rinni egallagan jamoaga maxsus kubok hamda 30 dona "oltin" medal taqdim etiladi.

7.2. Birinchi ligada 2-o'rinni egallagan jamoaga 30 dona "kumush" medal taqdim etiladi.

7.3. Birinchi ligada 3-o'rinni egallagan jamoaga 30 dona "bronza" medal taqdim etiladi.

7.4. Taqdirlash atributikalari Liga hisobidan tayyorlanadi.

8-bob

Futbol jamoasining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

8.1. Futbol jamoasining musobaqaga qo'shilishi yoki undan chiqib ketishi masalasi o'tgan mavsum musobaqasi natijasiga ko'ra hamda Liga qaroriga ko'ra aniqlanadi.

8.2. Futbol jamoasi musobaqada qaysi o'rinni egallashidan qat'i nazar agar u Liga tomonidan qo'yilgan minimal talablarni bajara olmasa, mazkur jamoa musobaqadan chetlatishtiriladi.

8.3. Yakuniga yetgan mavsum natijasiga ko'ra yuqori toifadagi ligada qatnashish huquqini qo'lga kiritgan futbol jamoasi ushbu huquqdan voz kechsa yoki unda mazkur ligada ishtirok etish uchun reglament, me'yoriy hujjatlar asosida qandaydir to'siq (cheklov)

bo'lsa, uning o'rni mavsum yakuniga ko'ra keyingi o'rinni egallagan boshqa futbol jamoasi bilan emas, Liga litsenziyalashning minimal talablariga javob bera oladi deb topgan jamoa bilan to'ldiriladi.

8.4. Faqatgina OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan futbol jamoasiga O'FA tomonidan professional futbol klubi maqomi beriladi.

8.5. Futbol jamoasi mavsum davomida Liga tomonidan ishlab chiqilgan minimal talablarni bajarishi shart.

8.6. Uchrashuvga asosli sababsiz kelmagan yoki boshqa sababga ko'ra texnik mag'lubiyat qayd etilgan jamoaga 0:3 hisobidagi texnik mag'lubiyat, raqib jamoaga esa 3:0 hisobidagi texnik g'alaba yoziladi.

8.7. Mazkur bobning 6-bandi bo'yicha ikki marta texnik mag'lubiyat qabul qilib olgan futbol jamoasining musobaqa qatnashchilari safidan chiqarilishi masalasi Liga tomonidan ko'rib chiqiladi.

8.8. Futbol jamoasi uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortsa va o'sha vaqtda hisob 0:3 dan yirikroq ko'rinishda bo'lsa, uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortgan jamoaga mavjud hisob bilan texnik mag'lubiyat yoziladi.

Uchrashuv yakuniga ko'ra futbol jamoasiga texnik mag'lubiyat yozish zaruriyati vujudga kelsa va o'sha jamoa uchrashuvda 0:3 dan yirikroq hisobda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mavjud hisob bilan qayd etiladi.

8.9. Birinchi liga qatnashchilari safidan chetlashtirilgan futbol jamoa shu musobaqa doirasidagi qancha uchrashuv o'tkazganidan qat'iy nazar, uning barcha natijalari bekor qilinadi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

8.10. Futbol jamoasi O'zbekiston qonunchiligi asosida o'z nomi yoki tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirsa, yangi jamoa avvalgi klubning huquqiy vorisi hisoblanadi va futbolchilar, murabbiylar, klubning boshqa xodimlari oldida oylik ish haqi hamda boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblardagi buzilishlar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Shuningdek, u O'FA, Liga va O'zbekiston soliq organlari oldidagi qarzdorlikni to'lash uchun javobgar hisoblanadi.

9-bob

Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

9.1. Futbol jamoasi musobaqada ishtirok etish oldidan yangi mavsum uchun yillik xarajatlar smetasi loyihasini shu klubni moliyalashtiruvchi tashkilot bilan kelishilgan holda tasdiqlagan bo'lishi lozim.

9.2. Futbol jamoasiga futbolchini ro'yxatdan o'tkazish tasdiqlangan xarajatlar smetasi hamda klub o'z uy uchrashuvlarini o'tkazuvchi stadion akti Ligaga taqdim etilishi shartida ruxsat beriladi.

9.3. Futbol jamoasi uy uchrashuvlarini o'tkazuvchi va zaxira stadionlari aktini mavsumning ilk rasmiy uchrashuvi sanasidan kamida uch hafta avval Ligaga taqdim etishi talab etiladi.

9.4. Futbol jamoasidan talab qilinadigan hujjatlarni Liga uchun rasmiylashtirish huquqi klub rahbariyati tomonidan vakolatli shaxsga beriladi.

9.5. Futbol jamoasi o'z rasmiysi va futbolchisini MyLeague platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tkazishi lozim. Ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Klub rasmiysi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- futbol jamoasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki kelishuv bitimi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik mutaxassis uchun);
- mutaxassislik bo'yicha diplom yoki sertifikat;
- fotosurat.

Klub murabbiyi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- futbol jamoasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik murabbiy uchun);
- talab etilgan murabbiylik litsenziyasi;
- fotosurat.

Futbolchi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (ilk mehnat shartnomasini imzolayotgan futbolchi uchun);
- futbol jamoasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki kelishuv bitimi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik futbolchi uchun) hamda XTS;
- transfer shartnomasi, ijara shartnomasi yoki sobiq klubi bilan mehnat munosabatlari bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlardan biri: mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi kelishuv, klub va futbolchi o'rtasidagi munosabatlar yakuni bo'yicha o'zaro e'tiroz mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;
- futbolchining talab etilgan tibbiy tekshiruvdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat;
- fotosurat.

9.6. Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng, litsenziyalar klubning vakolatli vakiliga uning imzosi bilan tasdiqlangan shaxsiy mas'uliyati ostida taqdim etiladi.

9.7. Jamoa o'z rahbariyati tarkibini Liga ro'yxatidan o'tkazish shart. Ular:

- bosh direktor (menejer);
- bosh murabbiy;
- katta murabbiy (yordamchi murabbiy);
- shifokor.

10-bob

Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi

10.1. Futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish 2025-yilning 1-mart sanasidan boshlanadi hamda shu yilning 31-mart sanasida yakuniga yetadi.

Yozgi transfer oynasi 2025-yilning 1-iyulidan shu yilning 31-iyuliga qadar davom etadi.

10.2. Futbol jamoasi futbolchi yoki murabbiy bilan yilning istalgan davrida mehnat shartnomasi tuzish hamda unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Mazkur mehnat shartnomasi yoki unga kiritilgan o'zgarish imzolangan kundan boshlab 20 kun ichida Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

10.3. Jamoa o'z vakili bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilsa, Liga 10 kun ichida bu haqda yozma ravishda ogohlantirilishi hamda ozod etilgan shaxs litsenziyasi Ligaga qaytarilishi shart.

10.4. Futbol jamoasi futbolchini faqatgina transfer oynasi vaqtida qaydnomaga kiritishga haqli.

10.5. Futbolchiga litsenziya uning tibbiy ko'rikdan o'tganligi borasidagi ma'lumotnoma taqdim etilishi shartida beriladi.

10.6. Futbol jamoasi 2007-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchini kelishuv bitimi asosida Liga ro'yxatidan o'tkazishi mumkin. Bunda kelishuv bitimi uzog'i bilan 1 yillik bo'lishi lozim.

Shu bilan birga jamoa 2007-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi bilan mehnat shartnomasi imzolash huquqini ham o'zida saqlab qoladi.

10.7. Oliy ta'lim muassasasi shu ta'lim maskanida tahsil olayotgan futbolchini kelishuv asosida Liga ro'yxatidan o'tkazishga haqli.

Shu bilan birga jamoa oliy ta'lim muassasi talabasi bilan mehnat shartnomasi imzolash huquqini ham o'zida saqlab qoladi.

11-bob

Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar

11.1. Legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan shartnoma imzolash oldidan futbol jamoasi mazkur shartnoma loyihasini Ligaga taqdim etishi va kelishishi talab etiladi.

11.2. Ro'yxatdan o'tkazilgan legioner yoki xorijlik mutaxassisga musobaqalarda ishtirok etish uchun litsenziya tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqnoma Ligaga rasman topshirilganidan so'ng beriladi.

11.3. Futbol jamoasiga 5 nafargacha legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat etiladi.

11.4. Liga quyidagi holatlarda futbolchini ro'yxatdan o'tkazmaslikka haqli:

- legioner bilan bog'liq qarzdorlik sabab O'FA yoki FIFA klubga nisbatan cheklov qo'ygan bo'lsa;
- futbolchining Xalqaro transferlarni muvofiqlashtirish tizimidan xalqaro transfer sertifikatini olmagan bo'lsa;
- ro'yxatdan o'tkazilgan legioner tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan bo'lsa.

12-bob

Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish

12.1. Liga jamoaning futbolchi bilan tuzgan mehnat shartnomasini yilning istalgan davrida ro'yxatdan o'tkazadi. Biroq bunga qadar xorijiy assotsiatsiya ro'yxatidan o'tgan futbolchini musobaqa uchun ro'yxatga olish faqatgina transfer oynasi vaqtida amalga oshiriladi.

12.2. Mehnat shartnomasi Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchining boshqa har qanday klub (ijara shartnomasi mavjud bo'lgan holat bundan mustasno) yoki Ligadan boshqa tashkilot o'tkazadigan musobaqa doirasida maydonga tushishi taqiqlanadi. Bunday holat aniqlansa, uning klubiga nisbatan jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

12.3. Jamoa 22–25 nafar futbolchini Liga ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi. 2007 yil va undan kichik yoshdagi futbolchi yuqoridagi cheklovdan tashqari ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda jamoaning umumiy futbolchilari soni 40 nafardan oshmasligi kerak.

12.4. Jamoa bir mavsum davomida umumiy hisobda 10 nafargacha futbolchini o'zi ishtirok etayotgan liganing boshqa jamoalariga ijaraga berishga haqli. Bunda biror jamoaga ko'pi bilan 2 nafargacha futbolchini ijaraga berish uchun ruxsat etiladi.

12.5. Jamoaga ijara shartnomasi asosida kelib qo'shilgan futbolchi o'zining asl jamoasiga qarshi o'yinda maydonga tushishga haqli.

12.6. Kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tgan futbolchi O'FA va hududiy assotsiatsiyalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda to'p surishga haqli.

13-bob

Futbol jamoasi, jamoa rasmiysi hamda futbolchi majburiyatini tartibga solish

13.1. Futbol jamoasi reglamentda belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

13.2. Jamoa vakili yuqori darajadagi intizom, tartiblilik, uyushqoqlik, o'zaro va tomoshabinlarga nisbatan hurmatni namoyish etib, mazkur reglamentning barcha talablariga rioya qilishi talab etiladi.

13.3. Jamoa o'z vakillarining xulq-atvori uchun bevosita mas'ul. Ular Liga komissari, inspektor va hakamlar harakatiga aralashishi taqiqlanadi.

13.4. Jamoa o'z tomoshabinlari (jamo muxlislari), shuningdek, klub nomidan biror-bir uchrashuvda muayyan vazifani bajarayotgan har qanday shaxs xulqi uchun javobgar hisoblanadi.

13.5. Jamoa hamda stadion uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq zarur tashkiliy masalalarni hal etish uchun mas'ul hisoblanadi. Ular uchrashuv xavfsizligi hamda tez tibbiy yordam uchun mas'ul organlar bilan hamkorlikda uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin stadionda, unga tutash hududda intizom hamda jamoatchilik tartibini saqlash uchun barcha zarur chorani ko'rishi talab etiladi.

13.6. Jamoa mazkur reglamentning 15.11 hamda 15.12-bandlari bo'yicha bevosita javobgar hisoblanadi.

13.7. Jamoa xalqaro turnir yoki xorijdagi o'quv-mashg'ulot yig'ini muddati, joyi aniq bo'lishi bilan Ligani bundan xabardor qilishi talab etiladi.

13.8. Jamoa uchrashuv startiga 20 kundan kam bo'lmagan muddat bor vaqtda Ligaga mazkur uchrashuv sanasi yoki vaqtini o'zgartirish borasida batafsil asoslangan rasmiy murojaat bilan chiqishga haqli. Bunday holatda yakuniy qaror Liga tomonidan e'lon qilinadi.

13.9. Uchrashuv mezboni bo'lgan jamoa uchrashuv rasmiylarining xavfsizligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

13.10. Uchrashuv rasmiylari xonasiga faqatgina Liga komissari ruxsat etgan shaxsning kirishi uchun ruxsat etiladi.

13.11. Mezbon jamoa uchrashuv uchun Liga taqdim etgan to'plardan kamida 3 tasini tayyorlashi hamda mazkur to'plardan uchrashuv yakuniga qadar to'liq foydalanilishini tashkil etishi talab etiladi.

13.12. Uchrashuv davomida ovoz kuchaytirgich orqali e'lon qilinadigan har qanday xabar yoki signal Liga komissari bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi.

13.13. Liga komissari zaruriyatdan kelib chiqib, uchrashuvni o'tkazish uchun mazkur reglamentda qayd etilmagan kerakli vositalar bilan ta'minlash masalasini mezbon jamoadan talab qilishga haqli.

13.14. Mezbon jamoa uchrashuv rasmiylarining eng yaqin vokzal yoki aeroportdan mehmonxonagacha borishi, qaytishi, mashg'ulot o'tadigan kunlarda mehmonxonadan stadiongacha borishi va qaytishi uchun transport bilan ta'minlashi talab etiladi.

13.15. Mezbon jamoa o'yin tugashi bilan 120 daqiqa ichida inspektor hamda Ligaga uchrashuvning raqamli shakldagi videoyozuvini talab qilingan formatda taqdim etishi shart. Bunda tasvir jamoalarning maydonga chiqish paytidan to kiyinish xonasiga qaytishlarigacha shartli ravishda taymer yoqilgan holda butun uchrashuv davomida uzluksiz suratga tushirilishi zarur.

13.16. Favqulodda holatlar hamda epidemiologik vaziyatlarda musobaqaning tashkiliy masalalari qo'shimcha reglament yoki Liganing rasmiy talabi bilan tartibga solinadi.

14-bob

Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi

14.1. Har qanday jamoaning ikki rasmiy uchrashuvi o'rtasidagi vaqt oralig'i 48 soatdan kam bo'lmasligi ta'minlanadi.

14.2. Uchrashuvlar davomiyligi 45 daqiqadan ikki taym bo'ladi. Taymlar orasidagi tanaffus 15 daqiqani tashkil etadi.

14.3. Ob-havo haroratidan kelib chiqib, uchrashuv bosh hakami klublardan birining taklifiga ko'ra, bo'limlar davomida bir marta suv ichish uchun 1 daqiqadan ko'p bo'lmagan tanaffus e'lon qilishi mumkin.

14.4. Musobaqa oldi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi (uchrashuv startigacha):

- 120 daqiqa — Liga komissarining stadiongacha kelishi;

- 60 daqiqa — inspektor va hakamlarning kelishi;
 - 60 daqiqa — jamoalarning kelishi;
 - 60 daqiqa — uchrashuv qaydnomasini to'ldirish uchun futbolchilar litsenziyasini Liga komissariga taqdim etish;
 - 50–20 daqiqa — chigalyozdi mashg'ulotlari;
 - 15 daqiqa — futbolchilar libosi va ulardagi belgilar tekshiruvi, raqamlarning litsenziyaga muvofiqligi;
 - 10-5 daqiqa — jamoalarning tribuna osti yo'lakchasida saflanishi.
- Klublar Liga komissari taqdim etgan Countdown tartibiga qat'i rioya qilishi lozim.

14.5. Musobaqa davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni — uch urinishda 5 ta (bunda tanaffus vaqtidagi o'zgarish urinish sifatida qayd etilmaydi).

14.6. Jamoa musobaqa davomida Liga tomonidan taqdim etilgan professional futbol to'plaridan foydalanishi shart. Jamoa o'z mashg'ulotlari uchun to'plarni mustaqil ravishda sotib olishi talab etiladi.

14.7. Jamoa uchrashuv startidan 60 daqiqa avval futbolchilarning ismi-familiyasi, raqamlarini o'sish tartibida, rasmiy shaxslarning ismi-familiyasi va lavozimini litsenziyada ko'rsatilgani bo'yicha kiritish uchun Liga komissariga ularning litsenziyasini taqdim etishi talab etiladi.

14.8. Musobaqa qatnashchisi uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 9 nafar zaxira futbolchisini kiritishi uchun ruxsat etiladi.

14.9. Uchrashuv qaydnomasidan Liga litsenziyaga ega bo'lgan 7 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi uchun ruxsat etiladi.

14.10. Mazkur bobning 9-bandida ko'rsatilgan klub rasmiylari orasida klub shifokorining bo'lishi shart.

14.11. Jamoa uchrashuv qaydnomasiga diskvalifikatsiya qilingan futbolchini kiritgan holatda g'abala qozonsa yoki durang o'ynasa, unga nisbatan texnik mag'lubiyat yoziladi. Bunda ushbu uchrashuvda urilgan gollar hisobdan chiqariladi, ammo olingan ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchida qoladi.

14.12. Diskvalifikatsiya qilingan futbolchini qaydnomaga kiritgan holatni sodir etgan jamoa o'sha uchrashuvda 0:3 dan yirikdan ko'rinishda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mazkur reglamentda qayd etilgan holat bilan tartibga solinadi.

14.13. Jamoa stadiongacha kechikib yetib kelgan futbolchini qaydnomaga uchrashuv startiga 20 daqiqa qolguniga qadar kiritishga haqli. Buning uchun jamoa rasmiysi Liga komissariga murojaat qilishi talab etiladi.

14.14. Liga komissari hamda bosh murabbiy tomonidan imzolangan uchrashuv qaydnomasiga biror futbolchining kutilmagan jarohati sabab uchrashuv startigacha o'zgartirish kiritish zaruriyati vujudga kelsa, qaydnomaga o'zgartirish kiritiladi. Bunda jarohatlangan futbolchiga uchrashuvni zaxira o'rindig'ida kuzatish hamda faqatgina keyingi rasmiy uchrashuvdan boshlab maydonga tushish uchun ruxsat etiladi.

14.15. Jamoa shu bobning 14-bandidan kelib chiqib uchrashuv startigacha biror futbolchini almashtirishga majbur bo'lsa, klub uchrashuv davomida shu bobning 5-bandida ko'rsatilgan limitdan to'liq foydalanish huquqini saqlab qoladi.

14.16. Jamoa stadiona belgilangan vaqtdan kechikib yetib kelsa, uning rasmiysi Liga komissaridan futbolchilar kiyim almashtirishi hamda chigilyozdi mashg'ulotlarini o'tkazishi uchun o'yin starti vaqtdan keyin umumiy hisobda yana 10 daqiqa vaqt so'rashga haqli.

14.17. Uchrashuv belgilangan vaqtdan 16 daqiqaga kechikishni boshlasa, aybdor jamoaga nisbatan texnik mag'lubiyat qo'llaniladi.

14.18. Tez tibbiy yordam mashinalari yoki xavfsizlik uchun javobgar organlarning kechikishi oqibatida uchrashuv o'z vaqtida start olmasa, Liga komissari 30 daqiqadan keyin mezbon jamoaga nisbatan texnik mag'lubiyat yozishga haqli bo'ladi.

14.19. Jamoa vakili uchun litsenziya musobaqada ishtirok etish va tegishli zonaga kirish huquqini beruvchi yagona hujjat hisoblanadi. Litsenziya egasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan taqdirida texnik zonaga qo'yiladi.

14.20. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan shaxs hamda zaxira futbolchilari texnik zonada maxsus ajratilgan joyda bo'lishi shart. Mezbon jamoa zaxira hakamining chap tomonida, mehmon jamoa o'ng tomonida maydonga qarab joylashadi.

14.21. Uchrashuv qaydnomasiga kirgan zaxira futbolchisiga o'z zaxira o'rindig'iga eng yaqin maydon burchagida to'psiz (darvozabon bundan mustasno) chigilyozdi mashg'ulotini bajarish uchun ruxsat etiladi.

14.22. Texnik zonada tamaki va boshqa turdagi mahsulotlar chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish taqiqlanadi.

14.23. Uchrashuv qaydnomasidan joy olgan rasmiy shaxsga mobil aloqa vositasidan foydalanish taqiqlanadi (maxsus ruxsat etilgan texnik vositalar bundan mustasno). Bunda hech qanday texnik vosita uchrashuv rasmiylariga e'tiroz bildirish uchun asos bo'lmasligi shart.

14.24. Jamoa bosh murabbiyi texnik zonada dress-kodga amal qilish talab etiladi.

14.25. Uchrashuv vaqtida jamoa rasmiylari orasidan faqatgina bosh murabbiyga texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish uchun ruxsat etiladi. Bunda bosh murabbiy chet el fuqarosi bo'lib, futbolchilar bilan muloqot uchun tarjimon yordami zarur bo'lsa, bosh murabbiy ko'rsatma berishda tarjimondan foydalanishga haqli.

14.26. Jamoa bosh murabbiyi diskvalifikatsiya yoki boshqa sabab bilan uchrashuvda ishtirok eta olmayotgan bo'lsa, texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish vakolati bor jamoa rasmiysi qaydnoma to'ldirish jarayonida Liga komissariga alohida ko'rsatilishi talab etiladi.

14.27. Musobaqa Liga tomonidan belgilangan muddat va vaqtda o'tkaziladi. Vaqti (kun va soat) quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- oldindan taxmin qilishning imkoni bo'lmagan fors-major vaziyat va hodisalarning yuzaga kelishi natijasida uchrashuvni o'tkazish, boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmaganida. Bunday hodisalar qatoriga avariya, yong'in, suv toshqin, zilzila, epidemiologik va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, musobaqa tashkilotchilari va futbolchilarga bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa tafsilotlar kiradi. Bunday holatlarda uchrashuvning qachon va qay tartibda davom ettirilishi masalasi Liga tomonidan belgilanadi;
- musobaqa jadvaliga Liga tomonidan o'zgartirish kiritilganida.

14.28. Elektr yoritish tizimidagi muammo 60 daqiqa ichida bartaraf etilmagani oqibatida uchrashuvni boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmasa, maydon egasi bo'lgan jamoaga nisbatan texnik mag'lubiyat yoziladi.

15-bob

Jamoaning musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar

15.1. Jamoa Liga musobaqasida qatnashish uchun belgilangan miqdorda qatnashchilik badal pulini to'lab berishi talab etiladi. Badal miqdori Liga ljroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

15.2. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoa rasmiy uchrashuvni tashkil etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatni o'z zimmasiga oladi.

15.3. Agar jamoa musobaqa qatnashchilari tarkibidan chiqarilgan bo'lsa, u tomonidan avval amalga oshirilgan badal va boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.

15.4. Liga o'zi tashkil etayotgan musobaqada faoliyat olib boruvchi komissarlari xizmati uchun to'lovlar, uning ikki tomonlama yo'lkirasi hamda yashashi uchun xarajatlarni (ovqatlanish uchun xarajat bundan mustasno) o'z zimmasiga oladi.

15.5. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar va nazoratchi uchun ikki tomonlama yo'lkira xarajatlari O'zFHM tomonidan amalga oshiriladi.

15.6. Uchrashuv rasmiysining ovqatlanishi, kutib olinishi, yashashi, kuzatilishi bilan bog'liq xarajatlar mezbon jamoa hisobidan amalga oshiriladi. Bunda uchrashuv rasmiylarini kutib olish lokatsiyalari Liga Ijroiya qo'mitasi qarori bilan har bir klub uchun alohida belgilab beriladi.

15.7. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar hamda nazoratchi uchun xizmat to'lovlari O'zFHM tomonidan amalga oshiriladi.

15.8. Liga badal to'lovi, jarimalar bo'yicha qarzdorlik, shuningdek, legioner futbolchi va xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan to'lovni to'lamagan yoki belgilangan muddatda to'liq to'lamagan futbol klubini musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirishga haqli.

15.9. Mezbon jamoa uchrashuv komissari hamda uchrashuvni tasvirga olayotgan operator Liga talabi darajasida ishlashini ta'minlash uchun, komissar xonasi hamda operator joylashgan nuqtani 100 mb/s tezlikdagi internet bilan ta'minlashi shart.

16-bob

Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

16.1. Uchrashuvni tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish uchun Liga tomonidan komissar tayinlanadi.

16.2. Uchrashuvni boshlash yoki uni o'tkazmaslik masalasi bevosita Liga komissari tomonidan hal qilinadi.

16.3. Liga komissarlari ro'yxati maxsus o'quv-seminarida ishtirok etib, uning yakuniga ko'ra tavsiya etilgan mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

16.4. Liga komissari uchrashuv startiga 60 daqiqa qolgunga qadar zaxira hakami va jamoa rasmiysi bilan birgalikda uchrashuv qaydnomasiga futbolchilarning ism-familiyasi va raqamlarini (o'sish tartibida), shuningdek, rasmiy shaxslarning lavozimini ko'rsatgan holda kiritadi.

16.5. Liga komissari uchrashuvni mazkur reglamentga muvofiq tashkil etish, xavfsiz o'tkazilishini nazorat qilish, huquq-tartibot organlari, stadion va klub rasmiylari, futbolchilar, tomoshabinlar harakatlarini baholash uchun mas'ul hisoblanadi.

16.6. Liga komissari uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish borasida bahsli masalalar yuzaga kelgan hollarda hal etuvchi ovozga ega.

16.7. Nazoratchi va hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'sunadi.

17-bob**Musobaqada hakamlilik qilishni tartibga solish**

17.1. Hakamlilik mazkur reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi.

17.2. Musobaqada O'zFHM tomonidan tayinlangan hakamlar faoliyat olib boradi.

17.3. Futbol klubi uchrashuvga tayinlangan hakamni almashtirish borasida murojaat qilishga haqli emas.

17.4. Uchrashuvga tayinlangan hakamlar brigadasi unga yetib kela olmasa, O'zFHM uchrashuvga HA hakamlaridan birini tayinlaydi. Yordamchi hakamlardan biri biror sababga ko'ra maydonga chiqa olmasa, zaxira hakami uning o'rnini egallaydi va bir vaqtning o'zida zaxira hakami vazifasini ham bajaradi.

17.5. Uchrashuv boshlanishidan kamida bir soat oldin bosh hakam Liga komissari bilan birga futbol maydonini ko'zdan kechiradi va uning sifatini 5 ballik tizimda baholaydi. Mazkur baho uchrashuv qaydnomasida ko'rsatiladi. Baholash jarayonida maydon bilan bog'liq muammo yuzaga kelsa, mezbon tomon mazkur muammoni uchrashuv startigacha hal qilishi talab etiladi.

17.6. Zaxira hakami Liga komissari bilan birgalikda klub rasmiylari litsenziyasini tekshiradi. Jamoa rahbarlari hamda klub rasmiy shaxslari futbolchilarni uchrashuvda ishtirok etishi qoidalariga rioya qilishi uchun mas'ul.

17.7. Maydonga chiqishdan avval hakamlar brigadasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan futbolchilar litsenziyasini tekshirishi, shuningdek, futbolchilarning raqamlari uchrashuv qaydnomasiga mos ekanligini solishtirishi talab etiladi.

17.8. Futbolchini almashtirish oldidan zaxira hakamiga almashtirish varaqasi taqdim etiladi.

17.9. Zaxira hakami maydon perimetri bo'ylab texnik va boshqa zonalarga oid xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul. U to'p uzatib turadigan yosh futbolchilar va o'z xizmat vazifasini bajaradigan boshqa texnik xodimlarga tegishli yo'riqnoma beradi.

17.10. Uchrashuv yakunlangandan so'ng bosh hakam Liga komissari bilan birga 30 daqiqa davomida uchrashuv qaydnomasini to'ldirishi talab etiladi. Agar uchrashuv davomida ogohlantirishlar, chetlashtirishlar va futbolchilar jarohatlari, shuningdek, stadionda tartibbuzarliklar yuz bergan bo'lsa, bosh hakam Liga komissari bilan birgalikda bu haqda batafsil uchrashuv qaydnomasida bayon etishi shart.

17.11. Uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin, shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar brigadasining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar va chetlatishlar (ikkinchi ogohlantirish va "yaqqol gol urish uchun imkoniyatidan mahrum qilish" uchun chetlashtirish bundan mustasno) haqida bosh hakam va uning yordamchilari komissarni ogohlantirib, Liga nomiga bildirgi xati yuborishi shart.

17.12. Hakam uchrashuvda yuz bergan ogohlantirish yoki chetlatish, boshqa noxushliklar haqida ma'lumotlarni qaydnomaga kiritishni Liga komissariga bildirmagan bo'lsa, u O'FA "Intizom kodeksi"ga muvofiq musobaqalarda faoliyat olib borishdan ma'lum muddatga chetlashtiriladi.

17.13. O'FA, O'zFHM va O'zPFL o'zaro kelishgan holda musobaqaga xorijlik hakam yoki hakamlar guruhini jalb qilishga haqli.

17.14. Hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'ysunadi.

18-bob

Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish

18.1. Musobaqada O'zFHM tomonidan tayinlangan nazoratchi faoliyat olib boradi.

18.2. Futbol klubi uchrashuvga tayinlangan nazoratchini almashtirish borasida murojaat bilan chiqishga haqli emas.

18.3. Nazoratchi mazkur Reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar, "Futbol bo'yicha musobaqalarda hakamlik sifati uchun hakamlarni baholash bo'yicha yo'riqnoma" talablariga qat'i rioya etishi shart.

18.4. Liga komissari ishtirok etmayotgan uchrashuvda O'zFHM nazoratchisi uchrashuv davomida Liga komissari vazifasini bajarishi talab etiladi.

18.5. Nazoratchi Liga komissariga bo'ysunadi.

19-bob

Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi

19.1. Hakam qarorlari bo'yicha shikoyat yoki e'tiroz mazkur reglamentga muvofiq beriladi va ko'rib chiqiladi.

19.2. Hakamlik sifatiga nisbatan futbol klubida e'tirozlar mavjud bo'lsa, bosh murabbiy uchrashuv yakuniga yetganidan keyingi 30 daqiqa ichida bu haqda Liga

komissariga ma'lum qilishga hamda o'z e'tirozini uchrashuv qaydnomasida imzolashni talab qilishga haqli.

19.3. Hakamlik sifatiga nisbatan rasmiy e'tiroz yozgan futbol klubi 24 soat ichida mazkur uchrashuv videoyozuvini (aniq holatlar daqiqalari bilan keltirilgan vaziyatning qisqacha ta'rifi) Ligaga taqdim etishi talab etiladi. Bunda hakamning mazkur reglament va "O'yin qoidalari" talablaridan kelib chiqqan harakat yoki harakatsizligiga nisbatan e'tiroz beriladi.

19.4. Qaydnoma uchrashuv rasmiylari tomonidan imzolab bo'lingach, shikoyat va e'tirozlar qabul qilinmaydi.

19.5. Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- uchrashuv qaydnomasida qayd etilmagan shikoyat yoki e'tiroz;
- 48 soat davomida klub shikoyat yoki e'tiroz uchun pullik to'lovni amalga oshirmagan shikoyat yoki e'tiroz.

19.6. Musobaqa o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz Liga komissariga uchrashuv boshlanishidan kamida 60 daqiqa oldin yozma ravishda taqdim etiladi. Liga komissari mazkur e'tiroznomani musobaqa bildirgisiga ilova qiladi.

19.7. Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz pullik to'lov Liga hisob-raqamiga amalga oshirilganidan so'ng ko'rib chiqish uchun tegishli qo'mitaga kiritiladi. Shikoyat yoki e'tiroz mazkur shikoyat uchun to'lov amalga oshganidan keyingi 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun to'lov — 5 000 000 so'm (besh million) so'm.

19.8. Shikoyat yoki e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun amalga oshirilgan pullik to'lovning qaytarilishiga shikoyat yoki e'tirozning qanoatlantirilishi, shikoyat yoki e'tirozda keltirilgan tafsilotlarning asoslanganligi va mazkur Reglamentga zid ekanligining tan olinishi asos bo'ladi.

19.9. Futbol klubi o'z shikoyat yoki e'tirozi ko'rib chiqilishi uchun to'lovni uchrashuvdan keyingi ikki bank ish kuni ichida amalga oshirmasa va bu vaqtda shikoyat yoki e'tiroz qaytarib ham olinmagan bo'lsa, mazkur klub shu bobning 7-bandida ko'rsatilgan to'lov miqdorining teng yarmini jarima sifatida to'lab berishi talab etiladi.

19.10. Futbol klubi kiritgan e'tiroz yoki shikoyatini 48 soat ichida qaytarib olsa, unga nisbatan intizomiy chora qo'llanilmaydi.